

KOGNITIV QOBILIYAT VA UNING RIVOJLANISHIDA INTIZOMNING ROLI**Bekimbetova Gulbahar****Ajiniyoz nomidagi NDPI dotsenti, p.f.f.d (PhD),****Bektoreyeva Jansaya****Ajiniyoz nomidagi NDPI****Tabiiy fanlar fakulteti 4- bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124617>**

XXI asrga kelib kognitivlik ta'lim sohasi konsepsiyasi darajasida qaralmoqda hamda insonlarning kognitiv qobiliyatlarini izchillik bilan rivojlantirish yordamida bilimlar va ularning ma'nosini yuzaga chiqishiga ishonch bildirilmoqda. Ya'ni, aynan, e'tirof etilish, eslab qolish, tahlillash, aks ettirish, tushunish va atrofdagi hodisalarni baholash kabi psixik jarayonlar, shuningdek, ular haqidagi ma'lumotlarni amaliyotda qo'llash tayanch vazifasini bajaradi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi asoschilaridan biri Jan Piajening ta'kidlashicha, insonning kognitiv qobiliyatlari tashqi omillar bilan emas, balki uning o'zi tomonidan aniq bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlari vositasida shakllanadi. Ta'lim sohasida "kognitiv" tushunchasining qo'llanila boshlanganiga uzoq muddat bo'lmagan bo'lsa ham, uni aks ettiruvchi g'oyalarni ta'limning paydo bo'lish davri bilan bog'lash o'rinli bo'ladi. Chunki, ta'lim o'zida bilish jarayonlarini ifodalab, bilimlarning uzatilishi va o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Borliqni o'rganish, anglash o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'lgani kabi keyingi tadqiqotlar tahlili zamonaviy fan tarmoqlarining o'zaro aloqadorligi mumkin qadar oshib borayotganligini hamda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar borgan sari turli fanlarning birikish nuqtalarida kuzatilayotganligini ko'rsatmoqda.

Kognitiv ta'limda tizimli tafakkur alohida o'rin egallaydi, chunki zamonaviy ta'lim oldiga qo'yilayotgan vazifalar, aynan tizimli tafakkurni o'qitishning bosh maqsadlaridan biriga aylantirishni taqozo qiladi. Kognitiv ta'lim nimani o'qish (mazmun) muhimligini inkor qilmagan holda, qanday o'qish (bilish jarayonlari)ga butun vositalarni jamlashga e'tibor qaratadi. Ta'lim oluvchini bilish tizimi sifatida qarash jarayonda kognitiv fanlar (psixologiya, falsafa, neyrobiologiya, lingvistika, sun'iy intellekt va b.) metodologiyasi, nazariyasi va amaliyotidan o'qitish samaradorligiga erishishda unumli foydalanish mumkinligini anglatadi. Bunday yondashishda o'qituvchining o'rni ta'lim oluvchining kognitiv qobiliyatlari va bilish jarayonlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhit yaratuvchisi hamda uni amalga oshiruvchisiga aylanadi. Kognitiv o'qitishni amalga oshirishda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining samarali o'zaro ta'siri muhim ahamiyatga ega. Jarayonda ta'lim oluvchilar qanchalik ko'p kognitiv faoliyatga undalsa (muammoli vaziyatlar, munozaralar, ro'lli o'yinlar va b.), mahsuldorlik shunchalik yuqori bo'ladi. Bu holat esa o'qituvchining o'ziga ham innovatsion faoliyatga va kasbiy rivojlanishga doimiy tayyorlik shartini ajralmas qilib qo'yadi. Kognitiv o'qitishning bosh maqsadi o'qitish jarayonini yangi vaziyatlarga moslashtirishga imkon beruvchi aqliy qobiliyat va strategiyalarning butun jamlanmasini mukammallashtirishdan iboratdir. Kognitiv mahorat sharoitida ta'lim jarayoni axborotlarni yutishga emas, balki tadqiq etilayotgan predmetlarning ichki munosabatlarini anglash, ta'lim oluvchilarda muloqot, izlanuvchilik tafakkurini uyg'otish, mental faollikni jamlashga yo'naltiriladi. O'qitishga bunday yondashuv anglangan, asoslangan mulohazalarning jiddiy va murakkab kognitiv yuk bilan bog'langanligi oqibatida fikrlash faoliyatining yuqori samarali

o'sishiga olib keladi. Muhimi, ta'lim sohasidagi kognitiv tadqiqotlar ta'lim oluvchi shaxsining quyidagi intellektual sifatlarini aniqlash va rivojlantirishni maqsad qilib qo'yadi: turli vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyati; turli vaziyatlarga tezkor egiluvchan ta'sir ko'rsatish; farazlarni shakllantirish va tekshirish; atrof-muhitni o'zlashtirish; o'rganiladigan fanning tuzilishini aniqlashtirish; intellektual ko'nikmalarni egallash; o'zgaruvchan sharoitlarga adekvat mo'ljal olish va boshqalar.

Yuqoridagi tavsiflardan xulosaga kelish mumkinki, kognitiv ta'lim texnologiyalari tashqi axborotlarni manbasidan qat'iy nazar qabul qilish va qayta ishlashda bilish jarayonlarining faol ishtiroki hamda kognitiv psixologiya nazariyalariga tayangan holdagi o'qitishning ilg'or usul va vositalaridan unumli foydalanishni nazarda tutadi. Shuningdek, ushbu ta'lim texnologiyalari nafaqat o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish, balki o'quv jarayoni, o'quvchining ta'limdagi ishtirokini jadallashtiradi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini muvofiqlashtiradi. Kognitiv ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifasi har bir ta'lim oluvchining qabul qilingan axborotni tushunishi uchun yetarlicha sharoit yaratilishida. Buning ustuvor maqsadlari quyidagicha belgilanadi:

1. Ta'lim oluvchilarning kognitiv rivojlanishi.

2. O'qitish standarti talablariga mos ravishda bilimlarni o'zlashtirish va faoliyat usullarini shakllantirish.

3. Ta'lim oluvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish: turli manbalardan keluvchi axborotlarni qabul qilish qobiliyati;

- konspektlashtirish ko'nikmasi (mantiq va til me'yorlariga binoan shaxsiy fikrlarini bayon qilish);

- qisqacha sharhlash ko'nikmasi (kitob, maqola, og'zaki nutq, tele, video va boshqa materiallarning qisqacha tuzilmalashgan izohini kerakli axborotlarni ajratib olish va tanqidiy tahlillash asosida keltirish);

- berilgan muammoga doir axborotlarni to'plash ko'nikmasi;

- turli manbalardan olingan axborotlarni berilgan mezonlarga ko'ra taqqoslash ko'nikmasi;

- turli manbalardan olingan axborotlarni taqqoslash uchun tegishli mezonlarni shakllantirish ko'nikmasi;

- axborotdagi muammolar va ziddiyatlarni aniqlash ko'nikmasi;

- axborotni qabul qilishning texnik vositalaridan foydalanish ko'nikmasi; axborotni qabul qilishning dasturiy vositalaridan foydalanish ko'nikmasi;

- axborotlarni to'plashni rejalashtirish va kuzatish ko'nikmasi;

- axborotni qabul qilish va farazlarni tekshirishni rejalashtirish hamda tajriba o'tkazish ko'nikmasi;

- turg'un bilish motivatsiyasi;

- axborotning affektiv va kognitiv tarkiblarini farqlash ko'nikmasi;

4. Tanqidiy tafakkurni shakllantirish:

- haqiqiy ma'lumotlar va baholovchi mulohazalar orasidagi farqlarni anglash ko'nikmasi;

- haqiqiy ma'lumotlar va faraz, taxminlar orasidagi farqlarni anglash ko'nikmasi; mantiqiy bog'liqliklarni ajrata olish ko'nikmasi;

- bog'liqliklarning o'ziga xos bo'lgan maxsus belgilarini ajrata olish ko'nikmasi;

- fikr-mulohazalardagi haqiqiy va mantiqiy xatoliklarni aniqlash ko'nikmasi;

- ahamiyatli dalillarni taalluqli emaslaridan farqlash ko'nikmasi; asosli va asossiz baholashni chegaralash ko'nikmasi;
- axborotlarga ko'ra dalilli xulosalarni shakllantirish ko'nikmasi;
- xulosalarning adolatligini isbotlovchi nuqtai nazarlarni ajrata olish ko'nikmasi.

Qayd etish zarurki, mazkur maqsadlarning malaka oshirish ta'limi dasturlari mazmuni negizini tashkil etishi tinglovchilarda ularni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyaning oshishi, o'qitish sifatining yaxshilanishi va belgilangan vazifalarga erishish kafolatini kuchaytiradi Albatta, kognitiv rivojlanish ongli intizom orqali amalga oshadi. Ongli intizom- har bir shaxsni o'z - o'zini tarbiyalashi, ongli turda o'z ichki hohishlarini haqiqatga aylantirishi, maqsadlariga tomon sistemali harakat etishi natijasida shakllanadigan processdir.

References:

1. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – с. 246;
2. Espersen O.A. Modern English Grammar. – London, – p. IV. 2. Victoria N. Webster's New World Dictionary / N. Victoria. Third college Edition, 1988. – p. 1048
3. Нелюбин Л.Л. Толковый переводоведческий словарь / Л.Л. Нелюбин. – М.: Изд-во МПУ "Народный учитель", 2001. – с. 132. 4.
4. Циткина Ф.А. Терминология и перевод // К основам сопоставительного терминоведения. – Львов: 1988. – с. 213. 5.
5. П.П. Тимофеев, М. Н. Алексеев, Т. А. Софиано Англо-русский геологический словарь: Ок. 52 000 терминов /Под редакцией П. П. Тимофеева и М. Н. Алексеева.— М.: Рус. яз., 1988. – С. - 414 6.
6. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. Учебное пособие для вузов / И.В. Арнольд. – 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 2012. – с. 270